Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

NEMIS MUMTOZ SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY OBRAZLARNING NAZARIY-ESTETIK VA FALSAFIY ASOSLARI

Adiba Dovudovna Ma'diyeva*
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.b., f.f.f.d.(PhD)
✉ adibamadiyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis mumtoz va romantik she'riyatida an'anaviy obrazlar tizimining shakllanishi, uning nazariy-estetik va falsafiy asoslari qiyosiy-tipologik yondashuvda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida Gyote, Shiller, F. Shlegel, Gegel hamda Gadamer kabi mutafakkirlarning estetik qarashlariga tayanib, badiiy matndagi ramz va barqaror timsollarning umumbashariy mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, nemis lirikotidagi tabiat elementlari va ekzistensial kechinmalarni ifodalovchi obrazlarning milliy adabiy tafakkuridagi o'rni yoritilib, ularning o'zbek mumtoz adabiyoti bilan mushtarak va o'ziga xos jihatlari ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar

Nemis mumtoz adabiyoti, an'anaviy obraz, ramz, mifopoetika, qiyosiy adabiyotshunoslik, estetika, germenevtika, arxetip, lirika.

DOI: 10.5281/zenodo.21743513

KIRISH

Yevropa ma'rifatparvarligi, "Bo'ron va shiddat" (Sturm und Drang) davri hamda Vaymar mumtoz adabiyoti (Weimarer Klassik) zaminida shakllangan nemis adabiyoti o'zining chuqur falsafiyligi va mifopoetik ildizlari bilan ajralib turadi. An'anaviy obrazlar har bir xalq adabiyotida madaniy meros va badiiy tafakkurning uzviy qismi sifatida shakllanib, davrdan davrga o'tishi bilan yangi ma'no qatlamlari bilan boyib boradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ular nafaqat estetik timsollar, balki insoniyat tafakkuri, falsafasi va ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, nemis adabiyotidagi an'anaviy obrazlarni o'rganish ham adabiy jarayonni anglash, ham xalqning tarixiy tajribasi va madaniy ongini yanada chuqurroq tushunish uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi qiyosiy adabiyotshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

G'arb adabiyotshunosligida nemis mumtoz she'riyati va nasridagi barqaror timsollarning genezisini o'rganish, qiyosiy-tarixiy hamda mifologik maktab vakillari izlanishlaridan boshlab, bugungi kognitiv poetika tamoyillarigacha bo'lgan uzoq davrni bosib o'tdi. Ayniqsa, Gyote, Shiller, Hayne kabi mutafakkirlar ijodidagi mifologik, diniy-tarixiy va naturalistik (tabiat elementlariga xos) obrazlar tizimini umuminsoniy arxetiplarning milliy ko'rinishi sifatida baholash zamonaviy germanshunoslikda ustuvor yo'nalishga aylandi. Taniqli rus olimi E.M. Meletinskiy qayd etganidek, "Nemis adabiyoti kontekstida an'anaviy va mifologik obrazlarning qayta faollashishi nafaqat qadimiy syujetlarni modernizatsiya qilish, asrlar davomida shakllangan madaniy arxetiplar vositasida inson va jamiyat fojiasining eng botiniy, ekzistensial qatlamlarini badiiy kashf etish hamdir." [1, S. 284] Shu nuqtayi nazardan, nemis adabiyotidagi an'anaviy ramzlar va simvollar tizimining tarixiy-badiiy talqinlarini o'rganish, ularning Sharq va G'arb adabiy munosabatlaridagi tadrijiy o'zgarishlarini aniqlashda fundamental nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Jahon qiyosiy adabiyotshunosligi va estetik tafakkuri tarixida an'anaviy obrazlar tabiatini mantiqiy reallik sifatida asoslab bergan yirik namoyandalardan biri I.V. Gyotedir. Gyote o'zining estetik qarashlarida

an’anaviy obraz va ramzlarning umumbashariy mohiyatini tahlil qilib, ularni konkret voqelik orqali universal g‘oyalarni ifodalash usuli deb biladi. Olim o‘zining ilmiy mulohazalarida shunday yozadi: “Ramziy obraz (Symbol) – xususiy va aniq hodisada umumiy hamda universal ma’noning aks etishidir, bunda xususiy narsa umumiylikni ko‘rsatib qolmaydi, balki uning o‘ziga aylanadi” [2, S. 411]. Gyotening ushbu badiiy idrok va universal mazmun tashxisi haqidagi xulosalari F. Shiller tomonidan yanada kengaytiriladi. Shiller an’anaviy poetik obrazlarni inson ruhiyatidagi ideal dunyo bilan moddiy borliq o‘rtasidagi estetik ko‘prik deb baholaydi va barqaror timsollar vositasida insoniyatning yuksak ma’naviy intilishlari muhrlanishini ta’kidlaydi. [3, S. 312]

Ushbu badiiy tamoyil nemis romantizmining yirik namoyandalari Novalis va F. Shlegel ijodiy merosida yanada teranlik kasb etadi. Romantiklar an’anaviy obrazlarni cheksiz ilohiy olamni va inson ruhiyatining tubsiz qatlamlarini idrok etish hamda ifodalashning yagona mukammal vositasi, deb hisoblaganlar. Ularning qarashlariga ko‘ra, adabiyotdagi an’anaviy obrazlar borliqning yashirin mohiyatini ochuvchi konseptual hodisadir. F. Shlegel ushbu konseptual yaxlitlikni umumlashtirib, shunday yozadi: “Barcha badiiy izlanishlarning, har qanday barqaror obraz tizimining tub mohiyati cheksiz va tasvirlab bo‘lmas ilohiy borliqni oddiygina so‘z hamda ma’lum badiiy shakl doirasida muhrlash san’atidir”. [4, S. 182] Ko‘rinib turibdiki, nemis mumtoz va romantik adabiyotshunosligida an’anaviy obrazlar tizimi chuqur falsafiy-dunyoviy dunyoqarashning badiiy ifodasi o‘laroq o‘rganilgan. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek va nemis she’riyatidagi badiiy tafakkur mushtarakligini qiyosiy-tipologik tadqiq etish uchun metodologik zamin hozirlaydi.

G‘arb adabiyotshunosligida tabiatga oid an’anaviy obrazlarning lirik matnda ijtimoiy-ruhiy mohiyat kasb etishi nemis mumtoz falsafasi va estetikasining fundamental qonuniyatlariga borib taqaladi. Bu borada buyuk nemis faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel(Georg Wilhelm Friedrich Hegel)ning “Estetika” (“Vorlesungen über die Ästhetik”) nomli ma’ruzalar to’plami she’riyatda ramz va obraz munosabatini metodologik jihatdan to‘g‘ri baholashda asosiy dasturilamal hisoblanadi. [5, S. 575] Gegel lirik she’riyatning tub tabiatini va undagi poetik so‘zning vazifasini mutlaqo o‘ziga xos tarzda belgilaydi. U o‘z asarida so‘z san’atidagi badiiy shuur silsilasini umumlashtirib, qayd etadi: “Chinakam lirika, umuman, har qanday haqiqiy she’riyat kabi, inson ruhiyatining asl mazmunini ifoda etishi lozim... Biroq lirikada har qanday predmet, hatto eng obyektiv, eng moddiy va ashyoviy hodisalar ham ijodkorning ichki dunyosida qayta ishlanishi teran his qilinishi, qalban yashalishi, tafakkur elagidan o‘tkazilishi va badiiy tasavvurda qayta gavdalanishi shart” [6, S. 512] Nemis mutafakkirining ushbu aniq va tushunarli klassik qoidasidan anglashiladiki, lirik she’riyatda qo‘llaniladigan barcha an’anaviy obrazlar (har qanday tashqi borliq va obyektiv ashyo faqatgina ijodkorning ichki olamida, shaxsiy shuur elagida qayta ishlanib, falsafiy mushohada bilan sug‘orilgandagina haqiqiy estetik kashfiyotga va an’anaviy barqaror badiiy ramzga aylanadi. Gegel ushbu konseptual qoidani antik G‘arb va mumtoz Sharq she’riyatining eng yetakchi namoyandalari ijodini satrma-satr, sinchkovlik bilan tahlil etish orqali amaliy jihatdan asoslab beradi. Faylasuf o‘z asarining “She’riyat” (Poesie) deb nomlangan yirik bo‘limida Yohann Volfgang Gyotening tabiat lirikasini, Fridrix Shillerning falsafiy she’rlarini hamda antik davr ijodkorlari asarlaridagi mifopoetik tizimlarni bevosita badiiy matn tahlili doirasida tadqiq etadi. Ayniqsa, mutafakkirning Jaloliddin Rumiy va Hofiz Sheroziy g‘azaliyotidagi may, ishq, gul, sham singari an’anaviy obrazlar tizimiga alohida to‘xtalib, ularning irfoniy va falsafiy mohiyatini ochib bergani diqqatga sazovordir. Demak, faylasuf talqinida an’anaviy poetik obraz ijodkor shaxsiyati orqali o‘zgartirilgan, uning ichki olamida yangitdan singdirilgan.

Sharq va G‘arb mumtoz so‘z san’atidagi an’anaviy obrazlar tadriji, badiiy matndagi botiniy ma’nolarning yoritilishi hamda ularning izlanuvchilar tomonidan idrok etilishi muammolari bevosita falsafiy germenevtika qonuniyatlari bilan bog‘liqdir. Bu borada XX asr G‘arb falsafiy-estetik tafakkurining yirik namoyandasi Hans-Georg Gadamerning (Hans-Georg Gadamer) “Aktualnost prekrasnogo” (Guzallikning dolzarbligi) nomli fundamental asari adabiyotshunoslik metodologiyasi uchun dasturilamal manbalardan biri hisoblanadi. Gadamer ushbu asarida matn va an’anaviy obraz tabiatini asrlar osha yashab kelayotgan va har bir yangi davrda qayta tug‘iladigan tirik ontologik hodisa sifatida tahlil qiladi. U til va poetik obrazni baholar ekan, she’riy matndagi har bir detalning mohiyatini ko‘rsatish uchun quyidagi qoidani ilgari suradi: “She’riy matnda so‘z muomaladagi o‘tkinchi yoki shartli belgisi emas... poetik so‘z tub borlig‘i bilan o‘zi ifodalayotgan ma’noni tasdiqlovchi va muhrlovchi yuksak badiiy hodisadir.”[7, S. 367] Nemis mutafakkirining ushbu konseptual xulosasidan anglashiladiki, mumtoz she’riyatda qo‘llanilgan har bir an’anaviy timsol (xoh u

gul va bulbul, xoh ranglar simvolikasi bo‘lsin) asrlar davomida milliy va umumbashariy ruhning eng yuksak haqiqatlarini o‘zida saqlab kelgan va har bir matn ichida yangitdan reallashadigan asosdir.

Gadamer an’anaviy obrazlar va diniy-mifologik ildizlarning uzviyligini tahlil qilar ekan, adabiy an’ananing paydo bo‘lish va yashash iqlimini tarixiy jihatdan baholaydi. U badiiy va diniy tafakkurning arx-etipik mushtarakligini ko‘rsatib yozadi: “Tarixiy hayotning o‘z-o‘zini anglashi har doim o‘sha hayotning o‘z ichki e’tiqodida mujassamlashgan bo‘ladi. Bilim esa mana shu hayotiy ehtiyojning yuzaga chiqqan shaklidir... Diniy an’analarning haqiqiy olami ham, aql mahsuli bo‘lgan poetik obrazlar ham aynan bir ildizdan o‘sib chiqadi. Ularning ichki qurilishi va tabiati bir xildir” [7, S. 301] Muallifning ushbu tizimli yondashuvi Sharq va G‘arb mumtoz adabiyotidagi sayyor obrazlar (masalan, Yusuf, Layli va Majnun, Xizr kabi liniy-tarixiy timsollar) genezisini to‘g‘ri baholashga xizmat qiladi. Ya'ni, adabiyot tarixidagi an’anaviy timsollar xalqning o‘z-o‘zini anglashi va milliy e’tiqodi (diniy, mifologik, falsafiy dunyoqarashi) bilan sug‘orilgan hayotiy ehtiyojning badiiy shaklidir. Aynan shu sababli ham ularning mohiyati asrlar o‘tsa-da, o‘zining universal barqarorligini saqlab qoladi. G. Gadamerning matn talqini va adabiy merosga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, bizning milliy adabiy-otshunosligimizda an’ana va yangilik dialektikasini tadqiq etishda ulkan metodologik ufqlar ochadi. Nemis olimining ushbu yondashuvi bizning o‘zbek va nemis mumtoz so‘z san’atidagi an’anaviy obrazlar evolyutsiyasini tahlil qilish prinsiplarimizga mutlaqo hamohangdir. Zero, biz nemis yoki o‘zbek mumtoz she’riyatidagi ramzlar olamiga o‘zga madaniy umuminsoniy qadriyatlarni o’rganamiz, o‘zligimizni kashf etamiz.

XULOSA.

Nemis mumtoz she’riyatida an’anaviy obrazlar tizimining qiyosiy-tipologik tahlili har ikki xalqning milliy-estetik tafakkuri, falsafiy qarashlari hamda badiiy olam manzarasida mushtarak insoniy tuyg‘ular bilan birga o‘ziga xos noyob xususiyatlarni ham yorqin namoyon etadi. Nemis romantizmi va mumtoz adabiyotida bu jarayon tabiatning sirli unsurlari Alp tog‘lari, daryo, qish va anduhli qalb kabi ekzistensial timsollar vositasida shaxsning ichki erkinligi hamda ruhiy olami bilan uzviy bog‘lanadi. Demak, milliy adabiyotdagi bu kabi tipologik farqlar va o‘xshashliklar jahon adabiy jarayonidagi umumbashariy g‘oyalarning rang-barang badiiy talqinlarini yuzaga chiqarib, turli madaniyatlarning bir-birini boyitishida va qiyosiy-komparativistik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishda fundamental ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Meletinskiy E.M. Poetika mifa. – Moskva: Nauka, 2000. – S. 284.
2. Goethe, J. W. von. Maximen und Reflexionen // Sämtliche Werke. Briefe, Tagebücher und Schriften. Abteilung I, Band 13: Schriften zur Kunst und Literatur / Hrsg. von Hendrik Birus. – Frankfurt am Main: Deutscher Klassiker Verlag, 2014. – S. 411.
3. Schiller, F. von. Über die ästhetische Erziehung des Menschen in einer Reihe von Briefen // Schillers Werke. Nationalausgabe. Bd. 20: Philosophische Schriften. Teil 1 / Hrsg. von Benno von Wiese. – Weimar: Hermann Böhlaus Nachfolger, 1994. – S. 312.
4. Schlegel, F. Athenaeum Fragmente // Kritische Friedrich-Schlegel-Ausgabe. Bd. 2: Charakteristiken und Kritiken I (1796–1801) / Hrsg. von Ernst Behler. – Paderborn, München, Wien: Schöningh, 2000. – S. 182.
5. Hegel G.W.F. Vorlesungen über die Ästhetik. Band 3. // Werke in 20 Bänden. Band 15. – Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 1986. – 575 S.
6. Hegel G.W.F. Vorlesungen über die Ästhetik. Band 3. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1986. – S. 512.
7. Гадамер Г.-Г. Актуальность прекрасного / Сост. М.П. Стафецкой; пер. с нем. Ал.В. Михайлова, В.С. Малахова. – Москва: Издательство «Искусство», 1991. – 367 с.